

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

KARIMOV ZOHID TO'LIBOEVICH NING

**(5141500) Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishini 403-
guruhi tolibi**

**B I T I R U V M A L A K A V I Y
I S H I**

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy qarashlari

Ilmiy rahbar:

f.f.d Xajieva M

Urganch 2013 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

«MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI»
KAFEDRASI

ABDURAHMON JOMIYNING MA'NAVIY QARASHLARI

Bajaruvchi:

Karimov Z.

Ilmiy rahbar:

f.f.d Xajieva M.S.

Urganch shahri- 2013

M U N D A R I J A

Kirish	4-7
I-BOB.ABDURAHMON JOMIYNING YASHAB IJOD ETGAN DAVRI MA'NAVIYATI VA MADANIYATI.....	8-32
1.1. Markaziy Osiyoda XIV-XV asrda Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy- ma'naviy muhit va Abdurahmon Jomiy.....	8-11
1.2. Abdurahmon Jomiyning xayoti va ijodi.....	12-19
1.3. Abdurahmon Jomiyning asarlarida ma'naviyat masalalarini yoritilishi.....	20-32
II-BOB. ABDURAHMON JOMIY ILMU URFON PESHVOSI.....	33-51
2.1. Abdurahmon Jomiyning ma'rifiy-qarashlari	33-37
2.2. Abdurahmon Jomiyning aqliy va axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari.....	37-42
2.3. «Abdurahmon Jomiyning ma'naviy - falsafiy karashlari va fikrlari» mavzusining dars ishlanmasi («Davra suhbati dars turi orqali»).....	42-51
XULOSA.....	52-54
ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	55-57

K I R I SH.

Mavzuning dolzarbliji: O'rta Osiyo tarixiy voqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha soxalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergen. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etanlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan xissa qo'shganlar. O'rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati vaa ma'rifatining o'zviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Ajdodlarimiz e'zozlab kelgan, asrlar qa'ridan olib o'tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasixatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko'zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo'ldi, e'tibordan chetda bo'ldi. Bu esa yosh avlodning ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Vaholanki, Islom Karimov «YUksak ma'naviyat-engilmas kuch» kitobida ta'kidlagandiki «...o'tmishdagি allomalarning bebaho merosi ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda»¹.

Barkamol insonni tarbiyalashda ularni zamon talabiga to'g'ri keladigan shaxs qilib etishtirishda boy ma'naviy-ahloqiy merosimizni o'rganish, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tmishda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk siymolar bo'lmish Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ma'naviy-axloqiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan xissalari beqiyosdir. Maktab va madrasalarda Abdurahmon Jomiyning bir qator kitoblari darslik hamda qo'llanmalar sifatida maxsus o'qitilib kelindi. Badiiy kalom muhiblari Abdurahmon Jomiyning dilkash she'riyati, «Bahoriston»i va «Haft avrang»idan bahra oldilar, unga qalb ozuqasi, dil najoti tarzida munosabatda bo'ldilar. Aytilganlarning barchasi Abdurahmon Jomiy

¹ Karimov . I. A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.T.: Ma'naviyat, 2008.- 12- bet.

ma’naviy merosn — kitoblarining xushxat kotiblar tomonidan qayta-qayta kitobat qilinishi, adib insonparlik qarashlarining keng quloch otishini tayin etadi.

Uning nomi va go’zal adabiy yaratmalari nafaqat forsiygo’ylar, balki turkiygo’ylar o’rtasida ham shuhrat paydo qildi. Badiiy ijod olamida Abdurahmon Jomiyga izdoshlik qilish, uning dahosidan saboq olish, ilg’or an’analarini davom ettirish, asarlariga javobiya — tababbular bog’lash, taxmislар yaratish, masnaviyot va she’riyatidan namunalarni o’zbek tiliga o’girish singari rang barang yo’nalishlarda davom etib keladi. Muhokamaga asos bo’lgan mavzu ko’pdan beri tojik va o’zbek adabiyotshunoslari diqqatini jalb qilib, ko’pgina adiblar asarlarining yaratilishiga ijobiy turtki berdi.

XVI asrdan bugungi kukga qadar bo’lgan davr ichidagi o’zbek adabiyotida Abdurahmon Jomiy an’analariga sadoqat masalasiga doir tadqiqotchilarning ayrim ilmiy mulohazalari bayon etilgan.

Abdurahmon Jomiyning ma’naviy-ahloqiy qarashlarida poklanish, mehrshavqat, to’g’rilik, sofdillik, vatanparvarlik, do’stlik insof va diyonat, ezgulik vaadolat, imonli, e’tiqodli bo’lish kasb- hunar va bilimni egallah haqidagi g’oyalar qamrab olgan, bo’lib bu g’oyalar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o’rin egallaydi.

Bu borada yoshlar ongida Abdurahmon Jomiyning insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi g’oyalari shakllantirish mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. **Mavzuning o’rganilganlik darajasi.** Jomiy merosi ko’pdan beri faylasuf tarixchi, adabiyotshunos, dinshunos, madaniyatshunos pedagoglarning diqqatini o’zida jalb etib keladi. Bir necha olimlarimiz va adiblarimiz tomonidan Navoiy merosi tadqiq etilgan. Jumladan, Alisher Navoiy¹., Bertels E. E²., M a l l a e v N³., Huseynzoda SH⁴., Boltayev M. N⁵. Najmiddin Kamilov⁶., M.Xayrullaev⁷.

¹ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.

² Bertels E. E. Izbrannye trudov Navoiy, Djami. «Nauka», Moskva, 1960

³ M a l l a e v N. M. XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to’plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 256—268-b.

⁴ H u s e y n z o d a SH. SHe’r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

⁵ Boltayev M. N. Abduraxman Djami o cheloveke egosmisle jizni i naznachenii. Kagan, 2011, 70 str.;

⁶ Najmiddin Kamilov. Tasavvuf 1-2 qism. Toshkent «YOzuvchi» nashriyoti 1996-98 y.

⁷ M.Xayrullaev. Uyfonish davri va SHarq mutafakkiri. T.”O’zbekiston”, 1971,-95-bet.

Navro'zova G¹lar Jomiy merosini o'rganib, bir necha muhim tamonlarini tahlil qilganlar.

Mavzuni yoritishdan asosiy maqsad va vazifalar. Abdurahmon Jomiyning ma'naviy qarashlarini o'rganish va uni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-falsafiy fikrlaridan foydalanish tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari. Ishning asosiy nazariy va uslubiy asosiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lism to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, davlat mustaqilligini mustahkamlash borasidagi, madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirish, oliy o'quv yurtlarini qayta tashkil qilish va yangi o'quv yurtlarini tuzish to'g'risidagi qonunlar va farmonlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liq fikrlari ilgari surilgan asarlari manba bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning maqsadidan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar belgilandi.

1. Abdurahmon Jomiyning yashab ijod etgan davri ma'naviyati va madaniyatini o'rganish va umumlashtirish.
2. Abdurahmon Jomiyning asarlarida ma'naviyat masalalarini yoritilishini o'rganish va tahlil etish.
3. Abdurahmon Jomiyning ma'rifiy-qarashlarini aniqlash.
4. «Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-falsafiy karashlari va fikrlari» mavzusining dars ishlanmasini ishlab chiqish va shakl, usul va metodlarini o'rganish va umumlashtirish.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy qarashlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni olish va sinf hamda darsdan tashqari jarayonlarda ularni turli tadbirlarda komil insonni ma'naviyatini

¹ Navro'zova G. Abdurahmon. Jomiy va Naqshbandiya ta'limoto «Ma'rifat» — Buxoro 1995, 76-bet

shakllantirishda va ma'rifatini rivojlantirishda ular tasavvurini ma'naviy merosimiz, milliy madaniyatimizga oid qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi.

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, ikkita bob, oltita paragrafni o’z ichiga olgan uch bob, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati”dan iborat. Matnning umumiy hajmi 57- betni tashkil etadi.

I-BOB. ABDURAHMON JOMIYNING YASHAB IJOD ETGAN DAVRI MA’NAVIYATI VA MADANIYATI

1.1 Markaziy Osiyoda XIV-XV asrda Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-ma’naviy muhit va Abdurahmon Jomiy

XIII asr boshlarida CHingizzon istilosini va kilgan yovuzliklari natijasida Markaziy osiyoning iqtisodiy va ijtimoi hayotida talofot yuz berdi: shaharlar, sug’orish inshootlari vayron bo’ldi, olimlar quvg’in qilindi. Halq CHingizzonni zulmiga qarshi ko’zg’aldi, unga bo’lgan nafrati ifodalangan «Guldursun» kabi afsonalarni yaratdi. Badiy adabiyotda Bag’uziyning «Qissai Rabg’uziy» singari islom dini targ’ib qilingan asarlar yoziladi¹.

XIV asrning o’rtalarida Markaziy Osiyo mayda feodal hokimlar o’rtasida kuchaydi, iqtisod mushkullashdi, siyosatda qat’iyatsizlik avj oldi. Ana shunday paytda Amir Temur siyosat maydonga chiqdi. U 1370- 1405 yillar davomida mamlakatni mo’gillar zulmidan ozod qildi, xonlar o’rtasida nizolarga chek quydi. Xurosonda markazlashgan mustakil davlat barpo etdi. U o’z faoliyatida davlatni mustaxkamlash, uni boshqarishni mukammallashtirish, obodonchilik, sug’orish, shaxarlar o’rtasidagi savdo yo’llarini kengaytirish ishlariga katta e’tibor berdi. Uning davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi: shaxarda Kuksaroy, bibixonim masjidi, SHoxizinda mavzoleyi, shaxar atrofida Bog’i CHinor, Bog’i SHamol, Bog’i dilkusho, Bog’i Behisht, Bog’i Nav kabi bog’ saroylar barpo etildi².

Ko’xak- zaraflar daryolari orqali hamda Amudaryo va Sirdaryo ko’priklar qurildi, Toshkent atrofida kanallar, jumladan Sirdaryo Oxangronga kanal o’tkazildi. markaziy osiyoda rassomchilik, naqqoshlik, bezakli- badiy buyumlar ishslash yuqori darajaga ko’tarildi.

¹ Navro’zova G. Abdurahmon. Jomiy va Naqshbandiya ta’limoti «Ma’rifat» — Buxoro 1995, 76-bet

². Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

Samarqand, Xirot Balxda yashab ijod etgan Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher navoiy kabi shoirlar turk- o'zbek va fors- tojik tilida she'riy asarlar yozib, o'zbek adabiyotining buyuk namayondalari bo'lib tanildilar.

Atoiy o'z she'rlerida insoniy fazilatlarni samimiy sevgi va vafodorlikni, insoniy go'zallikni tasvirlash orqali insonlarni shu fazilatlarni egallashga da'vat etdi, tabiat go'zalligini, inson erkini ulug'ladi.

Sakkokiy o'z g'azallarida inson- yor faqat tashqi emas, balki ma'naviy chiroyga ega bo'lishi kerakligi hakida fikr bayon eatdi. U insonning raxm- shafqatli, lut- karamli, vafodor va sadoqatli bo'lmog'ini istaydi. Kibr- xavo, mutakabbirlik inson uchun va haqiqiy yor uchun yomon hislatligini aytadi. Sakkokiy Ulug'bekka atab yozgan qasidasida uni ma'rifatparavr shoh va buyuk olim sifatida ulug'ladi.

Lutfiy o'z asarlarida insonlarni hayot sevgi, baxor va shodlik lazzatidan bahramand bo'lishiga chorladi, vafodorlik va sadoqatlikni, mardlik va baxodirlikni ulug'ladi, ma'rifat va osoyishtalikni targ'ib qildi. Lutfiy «gul va Navro'z» asarida sof sevgi, samimiyat, vafo va sadoqat, mardlik va jasorat, ezgulik vaadolat har qanday yovuzlik, xatto o'limdan kuchli ekanini ifodaladi,insonlarda bu fazilatlarning bo'lishini istadi.

Amir Temur zamonida tarix ilmi, tarixshunoslik soxasida muxim ishlar qilindi. Masalan Abdurazzoq Samarkandiyning (1413- 1482) «matal as- sa'dayn va majma' al- bahrain», («Ikki sadoqatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilishi»), Xofizi Abruning (1361-1430) «Zubdat at- tavorix» («Tarixlar sarasi»), sharifiddin ali- YAzidiyning «Zafarnoma» asarlari yuzaga keldi. Bu asarlarda Amir Temur va Temuriylar faoliyati, mamlakatda sodir 1gan madaniy va ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar bayon etildi.

Jurjoni, Taftazoniy, Ulug'bek, Davoniy, Koshifiy kabi faylasuf olimlar mantiq, axloq, matematika astronomiya, nafosat, tilshunoslik, musiqashunoslikka doir asarlar yozib, bu fanlarni rivojlantirdilar¹.

¹ M.Xayrullaev. Uyfonish davri va SHarq mutafakkiri. T."O'zbekiston", 1971,-95-bet.

Mir SHarif Jurjoniy (1319-1413, o'z davrining taniqli shoiri, faylasufi, astronomiyaga doir asarlar yozdi.

G'iyyosiddin Jamshid Koshiy Mirzo Ulug'bekning ilmiy ishlarini amalgaloshirishda faol xizmat qiladi, yirik matematik va astronom sifatida «Sulam yassamo» («Osmon narvoni»), «Nushat ul- xadoyiq» («Boglar sayri»), «Risola al-muhitiya» («Aylana haqida risola») kabi asarlarini yozib, o'rat sharq matematika ilmini yuqori boskichga ko'tardi.¹

Amir Temur saroyida olimlardan Abdujabbor Xorazmiy, SHamsiddin Munshiy, Abdulla Lison, Badriddin Axmad, nu'moniddin xorazmiy, jalol Xokiy va boshqalar ham hizmat qilib, turli ilm-fanga doir asarlar yaratib, ularning rivojigka katta xissa qo'shdilar.

Amir Temur xukmronlik davrida o'rnatilgapn itnchlik mamlakatda malaniyat, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, adabiyot va sa'atning rivojida, madrasalarda ta'limgartarbiyaning yuqori saviyada bo'lishida muxim omil bo'lid.

Movarounnahr va Xuroson tarixining keyingi davrlarida SHohruh, Ulug'bek, Mirzo Abu Said, Sulton Ahmad, xusayn boqaro, ayniqsa, Hindistonda Bobur va Akbarshoh, o'rta osiyoda temur davrida qaror topgan iqtisod va madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq eng yaxshi an'analarni davom ettirdilar.

Yirik shaxarlarda masjid va madrasalarda, masalan, Buxoroda Xo'ja Zayniddin, Bolohovuz, Juma, Namozgoh, katta masjidi va Abdullaxon Ko'kaldosh, Muhammad Xo'ja Porso, nodir Devonbegi, Abdulazizzon, Xiyobon, Jo'ybori Kalon, Rahmonqulixon, Ernazar elchi, Tursunjon, Niyozkul, Boxarziy, Ma'sudiya, Mir Arab; Samarqandda Bibixonim, Jomi, Ko'ktosh, Ko'chkinxon masjidi va SHaybonixon, Ulug'bek, SHerdor, Tillaqori; Xivada Matpanaboy, Qutlimurod, Olloqulixon madrasalarida, shuningdek keyingi yillarda (XVII-XIX asrlarda) Qo'qonda Jomi masjid va Madrasai Mir (Norbo'tabiy), Toshkentda Xo'ja axror, Nomozgoh masjidi va baraqxon, Ko'kaldosh madrasalarida diniy ta'lilot asosida islom, aruz, ilmi bayon mantiq, tarix, geografiya kabi gumanitar fanlardan tashqari

¹ Abduraxmon Jomiy. Baxoriston. T., «YOsh gvardiya» nashriyoti, 1979. 15-bet.

riyozat, falakiyat, xandas, tabiiyat kabi aniq fanlar xam o'qitildi. Ta'limda sharhlab o'qish, mustaqil mutolaa, munozara, suhbat usullari qo'llandi.

Talabalar arab, fors, turkiy tillarda yozilgan asarlarni ana shu usullarda o'qib, o'rgandilar. Gumanitra va aniq fanlar sohasida Imom Buxoriy, Abu Iso at Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn-Sino, Abu Rayxon Beruniy, YUsuf Xos Xojib, Umar Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Kozizoda rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Kushchi, Sultonali Xo'jandiy, YUsuf tabib, Ali YAzdiy, Abdurazzoq Samarcandiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Fazluloh Abdullays kabi olim va shoirlar, Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xanjon, Mir Ali Kilqalam, Xalvoiy Rafikiy kabi xattotlar, Mirk Nakqosh, Behzod, SHoh Muzaffar kabi madrasalarda etishdi¹.

Ular madrasalaprda o'qish, mustakil mutolaa, munozaralar orqali ulug' mutafakkir sifatida jahonga tanildilar, jahon madaniyati, ilm-fani rivojiga salmoqli hissalarini qushdilar. Bu ulug' mutafakkirlar o'z asarida yosh avlod ta'limi va tarbiyasi, ta'lim usullari hakida fikr, g'oyalar bayon etib, pedagogik fikr taraqqiyotida xam salmoqli o'rinni egalladilar, ular qoldirgan madaniy, adabiy yodgorliklar kelgusi avlod tarbiyasida muxim omil bo'ldi. ulug' Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Koshifiy, Davoniy kabi shoir va olimlar asarlarida aytilgan, olg'a surilgan g'oyalar, karashlar ahloqiy fikrlar rivojiga qo'shilgan muxim xissa bo'ldi.²

Umuman, XIV- XVI asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishishda shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda Amir Temur qo'llagan siyosat o'lkada ilm-fan, san'at adabiyot, xunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muxim axamiyat kasb etdi. SHoir va ilm ahllari va davlat arboblari o'z asarlarida, insoniy fazilatlar haqida bildirgan fikrlar, maktab va madrasalarda islom ta'limotining o'rganish, ahloq mantiq ilmini o'qitish bularning hammasi XIV-XVI asrlarda kelgusi avlod tarbiyasida muxim omil bo'ldi.

¹ B o l t a e v M. N. Abduraxman Djami o cheloveke egosmysisle jizni i naznachenii. Kagan, 2011, 70 str.

² Koshifiy. Axlok Muxsini. 77- bet

1.2 Abdurahmon Jomiyning xayoti va ijodi

Amir Temur asos solgan Temuriylar sultanati davrida Movarounnahr va Xurosanda badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko'garildi. SHu davrda fors-tojik adabiyoti o'zining yangi rivojlanish pog'onasiga erishgan bo'lsa, o'zbek adabiyoti ham Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimi, YAqiniy ijodlari misolida o'z taraqqi-yotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-mao-ni" asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy etgi dostondan iborat to'plamyga "Haft avrang" ("Etti taxt") deb nom qo'yari ekan, Temuriylar sulolasidan etti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, SHohrux, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro)ni ko'zda tutgan bo'lsa, Navoiy o'z "Xamsa"sin yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag'ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukmdorlariga o'zlarining ma'lum ma'noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan edilar¹.

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari-dan biri adabiy jarayonning yagonaliga, unda turkiy tilda ijod qiluvchilarining ham, forsiy qalam tebratuvchilarining ham baro-bar va faol qatnasha olgani edi. Buni biz Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida yaqqol ko'ramiz. Unda ijodkor-lar til xususiyatlariga qa^rab bir-biridan ajratilmagan. Husayn Boyqaro hukmdorliga davridagi adabiy hayotga to'xtalar ekan, Zahi-riddin Muhammad Bobur " Boburnoma"da: "SHuarodin bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi", — deb yozadi². Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o'zbek adabiyotining gullab-yashnashida ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo'lgan.

Abdurahmon Jomiy SHohrux hukmdorligi davrida — **1414** yil 7 noyabrdagi Nishopur yaqinidgi Jom shahrida, ruhoniy oilasida du-nyoga keldi. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan. Bobosi Mavlono Muhammad va otasi

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

² Boburnoma", Toshkent, 1960, 241-sahifa.

Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'liga qalam olib, she'r yoza bosh lagan vaqgdan boshlab o'z tavallud topgan shaxri nomini o'ziga adabiy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. SHarkdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'li-shi ma'qul ko'rilgan). U asosiy umrini Hirotda o'tkazdi va shu erda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib etishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehniningo'tkirliga bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma-lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotg'a ko'chishi, otasining bu erda shayx ul-islom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muxim ahamityaga ega bo'ldi. Hirotda uning o'qishiga Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, SHahobidtsin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur mualliflar o'z xissalarini qo'shdilar. Natijada u arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta va o'zlashtira boshladи¹.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoyasiga etkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'-bek, Qozizoda Rumi, Ali Kushchi kabi allomalarning ma'ruzala-rini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqxshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullays-dan ham ko'p dars oddi. Hirotda Jomiy tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi².

YOsh Jomiy SHayx Sa'diddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi.

1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'ltiradi. Ora-dan ko'p vaqg o'tmay, 1476/77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiyni o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqeа bo'ldi³.

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

² Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

³ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. SHuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi xayriyalar, shu jumladan Hirotda ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahari — Jomda bir masjid kurish imkoniga ega bo'lgan¹. Uning SHamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib etishgani ma'lum. XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-mada-niy va adabiy hayotda yuz bergen ibratli hodisalardan biri Navoiy — Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqevda turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof vaadolatni yoqlar edilar. Jomiyning "Nafahot ul-uns", "Lujjat ul-asror", "Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risolai muammo" kabi bir qancha asarlari Navo iyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-iqd", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot" deb nom qo'yadi.

1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. SHarq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan "Silsilatuz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnoma tipida bo'lib, o'z dav-rining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. "YUsuf va Zu-layho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy sujetlarning yangicha talqinlarini berdi.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lган. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lган va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

¹ Ma'lla e v N. M. XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to'plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 256—268-b.

Abdurahmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam elon qildi. Unga atab ko'pgana shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Ilohiy sirlar kashfi") degan so'zlar-dan (hijriy 898, melodiy 1492 yil) chiqarilgan edi¹.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Mavarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, ma-salan, Sulton YA'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yubor-gan. Uning asarlari o'z davrida vaundan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunos-lik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarla-rining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab ko'lyozmalarini uchra-tish mumkin². Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovro'po mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos E. E. Bertels "Jomiy" monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kulliyoti (O'zR FA Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va SHarq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdaga eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "SHavo-hidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "SHarhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalanib yozilgan qasida shar-hi"), "Naqtsi nusus" ("Matnni tanqid")> "SHarhi qasvdayi "Xamriya" ("Xamriya" qasddasi sharhi"), "Naqshbandiy ta'limoti haqida

¹ Малия в Н. М. XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to'plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 128-b.

² Qarang: "Rukopisi proizvedeni Abduraxman Djami v Sobranii Instituta vostokovedeniya AN UzSSR, Izd. "Fan", T., 1965.

risola", "Vohid" atamasi xaqidarisola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish yo'llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin¹.

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqsh-band g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lган holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" tariqatiga mansub deb hisoblasa-da, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi. U o'zining "Lujjat ul-asror" qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning olivjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanlikla-rini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan edi²:

Tome'on az bahri tu'ma peshi har xas sar nihad, Qone'onro
xanda bar shohu vaziri kishvar ast.

Mazmuni:

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga qo'yishga tayyor,
Qanoatlilar esa mamlakat shoxi va vaziri ustadan ham kula oladi.

SHoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

Mardi kosib kaz mashaqqatmekunad kafro durusht,
Bahri nohamvoriyi nafsi dag'al suhongar ast.

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,
Bu qo'ddaga dag'al esa nafs g'idir-budurini tekislovchi
randadir.

¹ Berтель E. E. Izbrannye trudy Navoiy, Djami. «Nauka», Moskva, 1960.-87b.

² A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M., 1988, str. 184

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishvda tasavvur etar edi. SHe'riy asarlarida zsa u Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. SHu bi-lan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyotsdir.

Jomiy "Nafahot ul-uns" asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi.

Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoi kabir", "Ri-solayi muammoi sag'ir", Risolayi muammoi mutavvassit", "Ri-solayi muammoi manzum", "SHarhi bayti Masnaviy, "SHarhi bayti Xusrav", "SHarhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari SHarq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'-liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahami-yatini yo'qotmagan. Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta nazariy qo'llanma yaratgani yoki ulug' salaflari asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat bergenini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishman-di bo'lganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma yozgan. Arab tyupshi esa o'z ona tilidek bilgan edi. U vaqgda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175— 1249) "Al-Qofiya" kitobi bo'yichao'rganilardi. SHoirning suyukli far-zandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'yicha o'qir ekan, darsni o'zlashtirishda katga qiyinchilik sezadi. SHuvda Jomiy uning ahvo-lini tushunib, 1492 yili, ya'ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi. SHundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitrshadigan bo'ladi¹. Jomiy "SHa-rhi" esa "SHarhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozonadi.

¹ Berтельс E. E. Izbrannye trudy Navoiy, Djami. «Nauka», Moskva, 1960.-87b.

Uning aruz bilan bir qatorda muzika nazariyasi haqida "Riso-layi musiqiy" asarini yozishi shu davr madaniy hayotvda katga voqeа bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jildlik "Muzika haqida katga kitob" asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va no-ohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yara-tish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakgerladi. Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandir. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezapsh zarur.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasr-ni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. SHayx Sa'diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to'plamini g'oyat sevgan va uni "jannatdan nishon, xashak-tikoni ham anbargadir jon" deb ta'-riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi. Jamiyatdagi turli tabaqalar hayotidan, tarixdan hikoya qiluvchi bu to'plamda biz janr e'tibori bilan en-gil, yozilish uslubi o'zgacha, tili xalqchil, sujeti sodda ko'p hikoya-larni o'qishimiz mumkin. Har bir hikoya katta tarbiyaviy ahamiyat-ga ega. Masalan, quyidagi hikoyani Iskandarning murakkab bir savolga g'oyat oqilona javob bergenini va do'stlik, insoniylik g'oyalarini ulug'laganini ko'ramiz:¹ "Iskandardan:

—Sen shunday yoshlik va navqironlik chog'ingda qanday qilib bu davlatu sultanatga erisha olding? — deb so'ranganlarida, u shunday javob beribdi:

—Men dushmanlarimga xushmuomala bo'ldim, toki adovat jilovi yig'ilib jonlansin; do'stlarga sadoqatda bo'ldim, toki do'stlik mustahkamlansin".

"Bahoriston"ning 7-ravzasi adabiy tazkira xarakterida bo'lib, utsda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy, SHayx Sa'diy, Hofiz SHeroziy, Kamol

¹ Ma'lla e v N. M. XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to'plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 256—268-b.

Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur fors-tojik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor.

Lekin Jomiy ijodining eng katga qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turla-rini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirik she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi. Navoiy: Jomiyning yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergen bo'lsa-da, "ammo hech vaqg nazm oyinidin xoli emas ekandurlar", — deb yozadi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarvda. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiqmazmuni, Alloho tanish, bilish bilan bog'liq haqiqat-ni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi.

Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p SHarq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtiroslari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no ber-gan. Jomiy she'riy merosining yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod ham bu to'g'rida: "Jomiydagi so'fiyona kayfiyat uning ijodiy yo'lini eng ibtidosidan boshlangan edi",¹ — deb yozganda to'la haq edi.

Jomiy lirik she'riyatvda real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziysi orqali birlashib ketgan.

SHoir she'riyatidagi pand-nasihat ruhidagi she'rlar kishilarni ezgulikka, halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Allah tomonidan berilgan umrni yaxshi ishlari bilan yashab o'tkazishga da'vat etadi. U o'z ruboiylarining birida yozadi:

Bo'laylik dil xasta ham siynalar chok, Hayotda
doimo pok bo'laylik, pok. Xokistar bo'laylik
ishning boshidan, CHunki oxiri ham xok bo'lurmiz,
xok.

¹ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M:, 1988, str. 184

1.3 Abdurahmon Jomiyning asarlarida ma’naviyat masalalarini yoritilishi.

Amir Temur asos solgan Temuriylar sultanati davrida Mova-rounnahr va Xurosanda badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko’taril-di. SHu davrda fors-tojik adabiyoti o’zining yangi rivojlanish pog’onasiga erishgan bo’lsa, o’zbek adabiyoti ham Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimi, YAqiniy ijodlari misolida o’z taraqqi-yotining eng yuksak bosqichiga ko’taridtsi. Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-mao-ni" asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy etgi dostondan iborat to’plamiga "Haft avrang" ("Etti taxt") deb nom qo’yar ekan, Temuriylar sulolasidan etti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, SHohrux, Ulug’bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro)ni ko’zda tutgan bo’lsa, Navoiy o’z "Xamsa"sin yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag’ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukmdorlariga o’zlarining ma’lum ma’noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan edilar¹.

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o’ziga xos xususiyatlari-dan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tilda ijod qiluvchilarning ham, forsiy qalam tebratuvchilarning ham baro-bar va faol qatnasha olshni edi. Buni biz Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida yaqqol ko’ramiz. Unda ijodkor-lar til xususiyatlariga qarab bir-biridan ajratilmagan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to’xtalar ekan, Zahi-riddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da: "SHuarodin bu jam’ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi",—deb yozadi².

Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o’zbek adabiyotining gullab yashnashda ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo’lgan.

Abdurahmon Jomiy SHohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniy oilasida du-nyoga keldi. Jomiyning

¹ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-56b.

² "Boburnoma", Toshkknt, 1960, 241-saqifa.

ota-bobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan. Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'liga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqgdan boshlab o'z tavallud topgan shaxri nomini uziga ada-biy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham btsldiradi. SHarkdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'sh}li bo'li-shi ma'qul ko'rildi). U asosiy umrini Hirotda o'tkazDi va shu erda mashhur shoир va mutafakkir bo'lib etishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehnining o'tkirliga bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotg'a ko'chishi, ot&sining bu erda shayx ulislom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamityaga ega bo'ldi. Hirotda uning o'qishiga Xoja Aloud-din Ali Samarqandiy, SHahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur mualliflar o'z hissalarini qo'shdilar. Natijada u arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta va o'zlashtira boshladı¹.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoya-siga etkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'-bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarining ma'ruzala-rini eshitash sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqxshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullays-dan ham ko'p dars oldi. Hirotda Jomiy tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi.

YOsh Jomiy SHayx Sadiddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulkiga mansub edi.

1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'ltiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1476/77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiyni o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katga voqeа bo'ldi.

¹ Qarang: "Rukopisi proizvedeniy Abduraxman Djami v Sobranii Instituta vostokovedeniya AN UzSSR, Izd. "Fan", T., 1965.

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat poddyuxlarining unga muruvvati katta edi. SHuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar xisobiga bir qancha bi-noyi xayriyalar, shu jumladan Hirotda ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahari Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning SHamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib etishgani ma'lum.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-mada-niy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisalardan biri Navo-iy — Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqevda turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning "Nafahot ul-uns", Lujjat ul-asror", Ashiat ul-lamaot", "Riso-lai musiqiy", "Risolai muammo" kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rлarini yig'ib, devon tuzmoqchi bo'lganda, Navoiy maslahati bilan uch{ta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga "Fotihat ush-shabob", ikkinchisiga "Vositat ul-iqts", uchinchisiga "Xotimat ul-hayot" deb nom qo'yadi.

1480 yildan 1485 yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk "Haft avrang"i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. SHarq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosi-dayozilgan budostonlardan "Silsilatuz-zahab", "Tuhfatul-ahror", "Suhbat ul-abror" g'oyaviy tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pandnomma tipida bo'lib, o'z dav-rining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. "YUsuf va Zu-layho", "Layli va Majnun", "Salamon va Absol", "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida esa shoir an'anaviy sujetlarning yangicha talqinlarini berdi¹.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy makgublari-dan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

¹ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M:, 2008, str. 165.

Abdurahmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasqtsa xastalanib, 78 yoshida hayot bipan vvdolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unga atab ko'pgana shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Ilohiy sirlar kashfi") degan so'zlar-dan (hijriy 898, melodiy 1492 yil) chiqarilgan edi.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan¹. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xu-roson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton YA'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yubor-gan. Uning asarlari o'z davrida va^undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fan-lar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunos-lik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarla-rining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin¹. Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovro'po mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos E. E. Bertels "Jomiy" monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kulliyoti (O'zR FA Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti, Ko'lyozma inv. №2122) asosida 52 asari-ning nomini keltiradi.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va SHarq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "Naqshi fusus" ("Ma'nolar naqshi"), "SHavo-hidi nubuvva" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "SHarhi qasidayi "Toiya" (Radifda "to" harfidan foydalananib yozilgan qasida shar-hi"), "Naqdi nusus" ("Matnni tanqid"), "SHarhi qasidayi "Xam-riya" ("Xamriya" qasidasi sharhi"), "Naqshbandiy ta'limoti haqida risola", "Vohid" atamasixaqidarisola", "Zikr" shartlari haqida risola", "Haj qilish

¹ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-92b.

yo'llari haqida risola", "Ashiot ul-lamaot" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqsh-band g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lган holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" ta-riqatiga mansub deb hisoblasa-da, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi. U o'zining "Lujjat ul-asror" qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning olivjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanlikla-rini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan edi¹:

Tome'on az bahri tu'ma peshi har xas sar nihad, Qone'onro
xavda bar shohu vaziri kishvar ast.

Mazmuni:

Ta'mashrlar bir luqma uchun boshini xasga qo'yishga tayyor,
Kdnoatlilar esa mamlakat shohd va vaziri
ustidan ham kula oladi.

SHoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

Mardi kosib k-az mashaqqatmekunad kafro durusht, Bahri
nohamvoriyi nafsi dag'al suhongar ast.

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi, Bu qo'ldash
dag'al esa nafs ivdir-budurini
tekislovchi ravdadir.

Jomiyning tasavvufga bo'lган e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. SHe'riy asarla-rida esa u Xudoni go'zal

¹ M a l l a e v N. M. XV asr tazkiralarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to'plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 256—268-b.

ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. SHu bi-lan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir¹.

Jomiy "Nafahot ul-uns" asarini yaratish bilan tasavvuf ta-rixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Uvda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayol-lardir. Jomiy vafotidan keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldi-rishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi bejiz emas edi.

Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoi kabir", "Ri-solayi muammoi sagar", Risolayi muammoi mutavvassit", "Ri-solayi muammoi manzum", "SHarhi bayti Masnaviy, "SHarhi bayti Xusrav", "SHarhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari SHarq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'-liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahami-yatini yo'qotmagan. Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta nazariy ko'llanma yaratgani yoki ulug' salaflari asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat bergenini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishman-di bo'lganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshuyaosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma yozgan. Arab tilini esa o'z ona tilidek bilgan edi. U vaqgda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175— 1249) "Al-Qofiya" kitobi bo'yichao'rganilardi. SHoirning suyukli far-zandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'yicha o'qir ekan, darsni o'zlashtirishda katga qiyinchilik sezadi. SHunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492 yili, ya'ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi. SHundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiy "SHa-rhi" esa "SHarhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozonadi.

Uning aruz bilan bir qatorda muzika nazariyasi haqida "Riso-layi musiqiy" asarini yozshdi shu davr madaniy hayotida katta voqeа bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jildlik "Muzika haqida katga kitob" asaridagi g'oyalarni

¹ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M:, 2008, str. 184.

yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va noohangdolshik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yara-tish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakgerladi. Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'na-viy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandir. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezashi zarur¹.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. SHayx Sa'diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to'plamini g'oyat sevgan va uni "jannatdan nishon, xashak-tikoni ham anbargadir jon" deb ta'riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoris-ton" degan asarini yaratdi. Jamiyatdagi turli tabaqalar hayotidan, tarixdan hikoya qiluvchi bu to'plamda biz janr e'tibori bilan engil, yozilish uslubi o'zgacha, tili xalqchil, sujeti sodda ko'p hikoya-larni o'qishimiz mumkin. Har bir hikoya katta tarbiyaviy ahamiyat-ga ega. Masalan, quyidagi hikoyani Iskandarning murakkab bir savolga g'oyat oqilona javob bergenini va do'stlik, insoniylik g'oyalarini ulug'laganini ko'ramiz: "Iskandardan:

— Sen shunday yoshlik va navqironlik chog'ingda qanday qilib bu davlatu saltanatga erisha olding? — deb so'raganlarida, u shunday javob beribdi:

— Men dushmanlarimga xushmuomala bo'dtsim, toki adovat jilo-vi yig'ilib jonlansin; do'stlarga sadoqatda bo'ldim, toki do'stlik mustahkaml ansin".

"Bahoriston"ning 7-ravzasi adabiy tazkira xarakgerida bo'lib, unda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy, SHayx Sa'diy, Hofiz SHeroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur fors-tojik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor.

Lekin Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490 yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar

¹ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

1805 g'azal va boshqa she'r turla-rini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirk she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi. Navoiy: Jomiyning yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergan bo'lsa-da, "ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas ekandurlar", — deb yozadi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiqmazmuni, Alloxni tanish, bilish bilan bog'liqhaqiqat-ni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi.

Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p SHarq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtiroslari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no ber-gan. Jomiy she'riy merosining yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod ham bu to'g'rida: "Jomiydagi so'fiyona kayfiyat uning ijodiy yo'lli-ni eng ibtidosidan boshlangan edi",¹ — deb yozganda to'la haq edi.

Jomiy lirk she'riyatqtsa real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirning ijodiy fantaziysi orqali birlashib ketgan.

SHoir she'riyatidagi pand-nasihat ruhidagi she'rlar kishilar-ni ezgulikka, halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Allah tomonidan berilgan umrni yaxshi ishlari bilan yashab o'tkazishga da'vat ztadi. U o'z ruboiylarining biryda yozadi:

Bo'laylik dil xasta ham siynalar chok, Hayotda
doimo pok bo'laylik, pok. Xokistar bo'laylik
ishning boshidan, CHunki oxiri ham xok bo'lurmiz,
xok.

(

Rang-barang hayotiy mavzularda yaratgan badiiy yuksak va serji-lo she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyitgan Jomiy, Sa'diy SHeroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz SHeroziy kabi so'z sanatkoriları safidan munosib o'rin oldi.

Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, shubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-tojik adabiyotida

¹ A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M:, 2008, str. 184.

yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa"-laridaga eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muam-molargao'z munosabatini bildirishgaharakat qilganki, masnaviyda, oldingi "Xamsa" dostonlari vaznida yaratilgan bu dostonlar Ni-zomiy va Dehlaviy asarlaridan qolishmasligani ta'kidlab, Ali-sher Navoiy quyidagi baytlarni yozgan edi¹:

G'azal dardu so'zini, vah-vah, ne dey! Desa
masnaviy, allah-allah, ne dey! Agar nazmdin borchha
uslub anga, Bori bir-biridin erur xo'b anga, Vale
masnaviy o'zga olam durur, Ki ta'biga holo
musallam durur. Bo'lub jilvagar tab'i ko'zgusida, Ki
sabt ayladi "Xamsa" o'trusvda, Erur andin ortuqliki,
o'ksuk emas, El andin der ortuqliki, o'ksuk demas!²

Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalq-parvarlik va insonparvarlik,adolat va insof masalalariga, zulm-ni, zolimlarni qoralashga keng o'rin berdi. Buni u ayniqsa shoh-lar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi.

Jomiyning "YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonla-rida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rinn tutadi. "Layli va Majnun"ning kirish qismida do'stlikni, muhabbatni ulug'lab shoir yozadi:

Umid xazinasin kaliti yordir, Hayoting u birla shod,
baxtiyordir. Vujuding maqsudi nedir g'ayri yor?
YOrsiz bu savdoning ne keraga bor? Vujuding

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

² Alisher Nzvoiy. Xamsa. Toshkent, 1960, 636-sahifa.

topguncha butkul inqiroz, Biror qush etolmas yor kabi
parvoz.

(

Xudtsi shu satrlar davomida Jomiy do'stlikka misol tarzida lr umrlik qadrdon do'sti Alisher Navoiyni eslaydi va uni do'stlik eg'idagi eng vafodor va mehribon do'st sifatida shunday ta'rif 1 tavsif etadi:

Do'stlik bog'idagi ma'sus xushkalom, Vafo
shoxidadir Navoiy mudom. Go'zal so'zlar bilan navo
aylagay, Ozurda dillarni davo aylagay. Bundan
boshqa ishning bo'lmas adosi, Jahonda do'star
bo'lmas adosi,

O'z davrida Jomiy faqat Navoiyning emas, balki butun o'zbek dabiyotini ham eng yaqin do'sti edi. Navoiy yozishicha, u turkiy ilda she'r yozmasa ham, ammo bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar (a ular haqida o'z fikrini ayta olar edi. Mavlono Lutfiy vafoti >ldida o'zining tugallanmay qolgan:

"Gar kori dili oshiq bo kofiri CHin aftad, Beh z-on ki ba
badxo'yi bemehri chunin aftad"¹,

— deb ataladigan matla bilan boshlangan g'azalini Jomiy da-yum ettirib, tugatib, o'z devoniga kiritsin, — deya vasiyat qilgan. Ma'lumki, Jomiy bu iltimosni bajargan. U Husayn Boyqaro ijo-zdtsan ham to'la xabardor edi. Ayniqsa uning Navoiy "Xamsa"sigi o'zining "Xiradnomayi Iskandariy" dostonida quyidagi bahoni bergani diqqatga sazovordir:

Ba turki zabon naqshe omad ajab, Ki jodudamonro
buvad mehri lab. Zi charx ofarinho bar on kilk zod,
Ki in naqshi matbu az on kilk zod.

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

Mazmuni:

Turkiy tidtsa shunday bir ajoyib naqsh (asar) paydo bo'ddiki, Uning oddida har qanday (so'z) sehrgari og'zini ocholmay qoldi. Falaqdan ofarinlar yog'ilisin (bu naqshni chizgan Navoiy)

qalamigaki,

Bu go'zal naqsh, axir, o'sha qalamning ishidir.

Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm-fani va adabiyotining faxri, SHarq she'riyatini yangi yuksaklikka ko'targan so'z san'-atkorlaridan birvdir. U bir necha asrdirki, Navoiy bilan yonma-yon, o'zbek shoir va adiblariga ham uetozlik qilib kelmoqtsa va doim shunday bo'lib qoladi. Rang-barang hayotiy mavzularda yaratgan badiiy yuksak va serjilo she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyitgan Jomiy, Sa'diy SHeroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz SHeroziy kabi so'z san'atkorlari safidan munosib o'rinni oldi.

Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, shubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-tojik adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa"-laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muam-molarga o'z munosabatini bildirishgaharakat qilganki, masnavivda, oldingi "Xamsa" dostonlari vaznida yaratilgan bu dostonlar Nizomiy va Dexlaviy asarlaridan qolishmasligani ta'kidlab, Ali-sher Navoiy quyvdagi baytlarni yozgan edi:

G'azal dardu so'zini, vah-vah, ne dey! Desa
masnaviy, allah-allah, ne dey! Agar nazmdin borcha
uslub anga, Bori bir-birndin erur xo'b anga, Vale
masnaviy o'zga olam durur, Ki ta'biga holo
musallam durur. Bo'lub jshshagar tab'i ko'zgusida,
Ki sabt ayladi "Xamsa" o'trusida, Erur andin

ortuqliki, o'ksuk emas, ZI avdin der ortuqliki, o'ksuk demas!¹

Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulm-ni, zolimlarni qoralashga keng o'rinn berdi. Buni u ayniqsa shohlar haqida gap borganda, qayta-qayta qalamga oddi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi.

Jomiyning "YUsuf va Zulayho", "Layli va Majnun" dostonla-rida ishq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yanga she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy sujetga qurilgan dostonlar orasida aloxida o'rinn tutadi. "Layli va Majnun"ning kirish qismida do'stlikni, muhabbatni ulug'lab shoir yozadi:

Umid xazinasin kaliti yordir, Hayoting u birla shod,
baxtiyordir. Vujuding maqsudi nedir gayri yor?
YOrsiz bu savdoning ne kerash bor? Vujuding
topguncha butkul inqiroz, Biror qush etolmas yor
kabi parvoz².

Xuddi shu satrlar davomida Jomiy do'stlikka misol tarzida bir umrlik qadrdon do'sti Alisher Navoiyni eslaydi va uni do'stlik bog'idagi eng vafodor va mehribon do'st sifatida shunday ta'rif va tavsif etadi:

Do'stlik bog'idagi ma'sus xushkalom, Vafo
shoxidadir Navoiy mudom. Go'zal so'zlar bilan
navo aylagay, Ozurda dillarni davo aylagay. Buvdan
boshqa ishning bo'lmas adosi, Jahottsa do'stlar
bo'lmas adosi³,

O'z davrida Jomiy faqat Navoiyning emas, balki butun o'zbek adabiyotini ham eng yaqin do'sti zdi. Navoiy yozishicha, u turkiy tilda she'r yozmasa ham, ammo bu tildagi

¹ Alisher Nzvoiy. Xamsa. Toshkent, 1960, 636-sahifa.

² A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 65-bet

³ A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 34bet

asarlarni yaxshi tushunar va ular haqida o'z fikrini ayta olar edi. Mavlono Lutfiy vafoti oldida o'zining tugallanmay qolgan:

"Gar kori didi oshiq bo kofiri CHin aftad, Beh zon ki ba
badxo'yi bemehri chunin aftad",

— deb ataladigan matla bilan bopshangan g'azalini Jomiy da-vom ettirib, tutatib, o'z devoniga kiritsin, — deya vasiyat qilgan. Ma'lumki, Jomiy bu iltimosni bajargan. UHusayn Boyqaro ijo-didan ham to'la xabardor edi. Ayniqsa uning Navoiy "Xamsa"sigi o'zining "Xiradnomayi Iskandariy" dostonida quyidagi bahoni bergani diqqatga sazovordir¹:

Ba turki zabon naqshe omad ajab, Ki jodudamonro
buvad mehri lab. Zi charx ofarinho bar on kilk zod,
Ki in naqshi matbu az on kilk zod.

Mazmuni:

Turkiy tilda shunday bir ajoyib naqsh (asar) paydo bo'ldiki, Uning
oddida har qavday (so'z) sehrgari og'zini ocholmay qoldi. Falaqtsan
ofarinlar yog'ilisin (bu naqshni chizgan Navoiy)
qalamigaki, Bu go'zal naqsh, axir, o'sha qalamning ishidir².

Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm-fani va adabiyoti-ning faxri, SHarq she'riyatini yangi yuksaklikka ko'targan so'z san'-atkorlaridan biridir. U bir necha asrdirki, Navoiy bilan yonma-yon, o'zbek shoir va adiblariga ham ustozlik qilib kelmoqtsa va doim shunday bo'lib qoladi.

¹ A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 24 bet

² A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 13-bet

II-bob. Abdurahmon Jomiy ilmu urfon peshvosi

2.1 Abdurahmon Jomiyning ma'rifiy-qarashlari

Hujrada yupungina kiyingan bir mo'ysafid va madrasa talabalari libosidagi ikki yigitcha o'tiribdi. Ular kimnidir zoriqib kutishmoqda. SHu payt xonaga kavushmaxsi kiygan, egnida yaxtak-ko'ylak, bo'z avra-astarli chakmon, qo'lida tasbeh ushlagan 45—50 yoshlar chamasidagi uy egasi kirib keldi. Salom-alikdan so'ng to'rdagi ko'rpachaga o'tirdi-da:

—Xo'sh taqsir, Sizni qanday yumush bizning huzurimizga etaklab keldi, — so'radi haligi kishi mo'ysafiddan.

—Hazratim, men bir bechora kosibman, Hirotning Govkushon mahallasida istiqomat qilurman. Devon xizmatkorlaridan biri o'z hammomining suvini mening xonam orqasidan o'tkazib qo'ygan. Devor zax tortib, nurash xavfi bor, xonam qulasa, men uni qayta qura olmayman. Sohibmansabga aytsangizu hammom suvini boshqa yoqdan o'tkazsa, — debdi u yalingan bir ohangda.

—Sizlarning ne arzingiz bor?! — Yigitlarga murojaat qildi uy egasi.

Biz Mashhaddanmiz. Nizomiya madrasasida tahsil olurmiz. Bir necha kundirkim ikkovimizning maoshimiz tugadi. Sizdan najot so'rab keldik, pirim, — ta'zim qildi mullabachchalardan biri.

Qo'lidagi tasbeh donalarini birma-bir sanab o'tirgan uy egasi bir oz xayol surib turdida, so'ng dedi:

— Usta Mir Maqsud, men shu bugunoq Amir Nizomiddin Alisher Navoiyga noma biturman. O'sha sohib-mansab Sizga zarar etkazmaydi. Sizlarga bo'lsa, — dedi u yigitlarga murojaat qilib, — Ulug' Amir shu bugundan e'tiboran vaqf mulki (machitga qarashli er, mulk va imoratlardan olinadigan daromad) hisobidan har oyga, albatta maosh tayinlaydilar.

Hazratning har bir aytgan gaplari albatta, amalga oshajagini bilgan mezbonlar ta'zim-tavozelarla rahmat aytib, hujradan chiqib ketishdi¹.

¹ B o l t a e v M. N. Abduraxman Djami o cheloveke egosmisisle jizni i naznachenii. Kagan, 2011, 70 str.;

Ulug' bobomiz Navoiy hurmat qilgan, bu baobro', oddiy xalq, ilm toliblariga g'amxo'r shaxs kim? Bu buyuk zot SHarqning ulkan shoiri va mutafakkiri, beva-bechoralarning pushti-panohi, ilm-adab axlining peshvosi, Navoiyning do'sti, maslaqdoshi, ustod Abdurahmon Jomiydir. Bo'lajak alloma Abdurahmon 1414 yili Jom shaxrining Xarjurd mahallasida ma'rifat sohibi Ahmad ibni Muhammad Dashtiy oilasida dunyoga keladi. YOsh Abdurahmon oilasi Hirota ko'chib keladi va u Nizomiya madrasasida tahsil ko'radi¹. Bu erda u Xojaali Samarqandiy, Said SHarif Jurjoni, Mavlono Shahobiddin Muhammad, Mavlono Sa'diddin Taftazoniy singari olim va mudarrislardan ilm o'rgana-di. Jomiy madrasaga kelganda ko'p kitoblarni o'qib chiqqandi. Abdurahmonning iqtidori shu darajaga etadiki, tez orada ayrim ustozlari va mudarrislar bilan bemalol babs yuritadigan bo'ladi. SHuning uchun uni Hirotdagi ta'lim qoniqtirmay qoladi va o'qishni da-vom ettirish uchun Samarqandga jo'naydi. Jomiy bu erda mashhur olim Qozizoda Rumiy tarbiyasini oladi. Tarixiy manbalarning guvoxlik berishicha, Qozizoda shogirdining ba'zi ilmiy munozaralardagi e'tiroz-larini mammuniyat bilan qabul qilgan, uning ilmiy kuchiga tahsinlar o'qigan. CHunonchi, atoqli olim Mav-lono Fathulloi Tabriziy: «Ulug'bek madrasasi bitgach, Qozizoda unga muarris etib tayinlandi. Madrasaning ochilishiga bag'ishlangan tantanada so'zlagan nutqida yi-g'ilganlarga qarata Samarqand paydo bo'lgandan beri biron bir yigit ilmiy quvvat va salohiyatda Jomiy singari martabaga etisha olmadi, deb xitob qildi», deb yozib qoldirgan. Hirota qaytib kelgach, Jomiy Marv, Bag'dod yana Samarqand, Eron va arab mamlakat-lari shaharlari bo'ylab safar qiladi, Makkada bo'ladi va 1473 yili qaytib kelib, umrining oxirigacha Hirotda yashab, 1492 yili vafot etadi.

Jomiydan bizga qadar ilm-fanning turli masalalariga doir risolalar, ko'plab badiiy asarlar meros qolgan. To'rtta she'rlar devoni, etti dostonni o'z ichiga olgan «Haft avrang» («Etti taxt») asari, «Bahoriston», «Aro'z haqida risola», arab tili darsligi, «Ru-boiy sharhi», «Musiqa haqidagi risola», «Munshaot», «Qofiya haqida risolalar»

¹ Najmiddin Kamilov. Tasavvuf 1-2 qism. Toshkent «YOzuvchi» nashriyoti 1996-98 y.

shular jumlasidandir. O't-mish tazkiralarda Jomiyning yuzga yaqin asar yozganligi qayd etiladi¹.

Abdurahmon Jomiy butun umrini ilm o'rganish, ijod qilish va yosh ilm-adab axutiga g'amxo'rlik qilishga, shoh va shahzodalar o'rtasidagi mojarolarni daf etishga, beva-bechoralar, talabalar, etim-esirlarga yordam berishga sarflagan mutafakkirdir. Uning bizga qadar Navoiyga va boshqa davlat arboblariga kambag'allarni himoya qilish, ularga moddiy ko'mak berish haqida yozgan yuzlab maktublari saklanib qolgan.

Jomiy o'z asarlarida insof va adolatni kuyladi, dehqon va hunarmandlarni jamiyatning moddiy ne'mat-larini yaratuvchilar sifatida ulug'lab, hukmronlarni ularni e'zozlashga, fuqaroga zulm-sitam qilmaslikka chaqirdi: ma'rifat va adolatni jamiyatning asosiy mo-hiyati deb tushundi. Boshqa san'atkorlar singari Jomiy ham shohlarni odil va zolimga ajratib, mamlakatning xurramligiyu elining xushbaxtligini ularning faoliyatiga bog'ladi. Jumladan, «Silsilatuz zahob» («Oltin zanjir») dostonida odil shoh haqida gapirib, quyidagi hikoyani keltiradi: bir keksa dehqon er haydayotib bir xum oltin topib olibdi. U xumni ko'ta-rib podshoh huzuriga boribdi. Podshoh ko'pni ko'rgan, ikki yuz yil yashagan bir qariyani chaqirib, bu xum tarixini so'rabdi. U shunday nakl qilibdi: o'tgan shoh-ning davrida bir kishi boshqa birovdan bog' sotib olibdi. Bog'dan oltin to'la xum chiqibdi. Bog'bon eski xo'jayinni chaqirib oltinlarini bermoqchi bo'lib: «Xum savdoga kirmagan edi, shuning uchun u sizniki, oling», debdi. «Yo'q taqsir, — debdi bog'ning oddingi egasi, — bu xum sizniki»². Ikkovlari orani ochiq qilish uchun xumni ko'tarib shoh oldiga borishibdi. «Bu pul-lar endi sizniki, — deb hukm chiqaribdi odil shoh, uni o'g'lingizni uylantirishga, qizingizni turmushga berishga sarflang».

Jomiy «Haft avrang» dostonlari tarkibidagi hikoyat va masallarda, «Solomon va Ibsol», «YUsuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Iskandar xiradnama-si» dostonlarida ham zulm-zo'rlik, munofiqlik, riyokorlik, pastkashlikni qoralab,

¹ Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

² A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 13-bet

xalqparvarlik, tinchliksevarlik, adolatparvarlikni ulug'lagan, do'stlik, chin insoniy sevgini yuksak badiyilikda tarannum etgan. «Bahoriston» asarida Jomiy o'zidan oldin yashab o't-gan shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berib, asarlaridan namunalar keltirgan, ko'plab hikoya va masallarda ilm-ma'rifikatni, insoniylikni, yaxshi axloqni targ'ib etgan. Bu hikoyalar juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Abdurahmon Jomiyning she'riyat nazariyasi, musiqa va tilshunoslikka doir asarlari o'sha davr adabiyotshunosligida muhim hodisa bo'ldi. Keyingi asrlar SHarq xalqlari adabiy-estetik qarashlari taraqqiyo-tiga sezilarli ta'sir etdi. Uning «Bahoriston»i va ayrim risolalari o'tmishda mакtab hamda madrasalarda o'quv qo'llanmasi vazifasini bajargan.

Alisher Navoiy bilan Abdurahmon Jomiy umri-ning oxirigacha ustoz-shogird bo'lган. Navoiy o'zining barcha asarlarini Jomiy maslahati bilan yozgan, ular-ning birinchi o'quvchisi ham Jomiy bo'lган. O'z navba-tida ulkan mutafakkir ayrim kitoblarini Navoiy maslahati yoki xohishi bilan yaratgan. Jumladan, qo'l-yozma daftarlarda tarqoq yurgan she'rlarini devon ho-liga keltirishni Jomiyga Navoiy maslahat bergen. Ba'zi risolalarni shoir Navoiyning bevosita istagi bilan yozgan. Jomyy «Layli va Majnun» hamda «Is-kandar xiradnomasi» dostonlarida Navoiy ta'rifiga alohida boblar bag'ishlangan. Alisher Navoiy Jomiy bilan do'stligi xususida «Xamsatul mutahayyirin» («Besh hayratlanish») asarini yozgan, uning «Qirq ha-dis», «Muhabbat shabbodalari» va boshqa asarlarini o'zbek tiliga erkin tarjima qilgan¹.

Alisher Navoiyning «Xamsa» yozish niyatini bi-rinchi bo'lib Jomiy qo'llab-quvvatlagan, unga yuksak baho bergen. SHuning uchun ham «Xamsa»ning har bir dostoni muqaddimasida Navoiy boshqa xamsanavislardan qatorida Jomiyga ham alohida bob ajratib, uni daho shoir, masnaviy ustasi, mehribon ustod sifatida ta'riflaydi².

¹ Najmiddin Kamilov. Tasavvuf 1-2 qism. Toshkent «YOzuvchi» nashriyoti 1996-98 y.

² Alisher Navoiy. Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.-98b.

Jomiy bilan Navoiy o'rtasidagi ustoz-shogirdlik, o'zaro hamkorlik bir umrga ajralmas do'stlik qadim-qadimdan bir sarzaminda yashab, hayot achchiq-chuchuklari-ni birga totib kelayotgan o'zbek va tojik xalqlari birodarligining oliv namunasidir. Jomiy asarlari o'tmishda ham, hozir ham o'zbek tiliga qayta-qayta tarjima qilinib, nashr etilib kelinmoqda.

JOMIY HIKMATLARIDAN

Kitobdan yaxshi do'st yo'q jahonda, G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda. U bilan qol tanho, hech bermas ozor, Joningga yuz rohat beradi takror.

Ilming bo'lsa qochma amaldan, Ilming qimmati amali bilan.

Ilm—barcha hunarning toji—bebaho, Ilm—hamma qulfning kaliti—a'lo.

Senga ulug'lik lozim bor joyda, Otang obro'yi bermaydi foyda.

Ilm olishga belingni chog'la, Boshqa har ishdan qo'lingni bog'la. Ustod, muallimsiz qolsa bir zamon, Nodonlikdan qora bo'lardi jahon.

Eng yaxshi odam shu — kimdan xalqiga, Qandaydir naf tegar har kunu har dam.

Do'stga agar qo'shilsa do'st-yor, Orzu og'ochi bo'lur hosildor. Har kim bilan oshnolik istama, Har oshnodan ro'shnolik istama¹.

2.2 Abdurahmon Jomiyning aqliy va axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari

Jomiy o'zidan odtsin o'tgan mutafakkirning inson-parvarlik an'analarini davom ettirib, yaxshilikni, shafqatilikni, oljanoblilikni, ijod etishni in-son hayotining maqsadi qilib qo'yishni talab etadi, har bir inson hayotda shodlik va baxtli bo'lishni

¹ A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 13-bet

istasa, u o'zidan keyingi avlodlarga yaxshilik xotirasi qoldiri-shi kerak. Inson o'zining himmatliliqi bilan barhayot-dir. Inson vafot etsa, uning yaxshi nomi asrlar davo-mvda yashaydi. SHunga ko'ra, u jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar, yoshligidan boshlab yoshlarda saxovatlilik fazilatini tarbiyalamog'i lozim, chunki saxovatli-lik quruq hamdardiqtsan iborat bo'lmay, ta'sir etuvchi' kuchdir. Haqiqiy saxovatlik foydali harakat, ish bi-lan tasdiqlanishi zarur.

Jomiy o'zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogakaga doir o'lmas meros qoldiradi. U o'z asarla-rida, ayniqsa, nasriy yo'lda yozilgan «Bahoriston» asarida ta'lif-tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi¹.

Jomiyning fikricha, ilm inson uchun hayotiga yo'l ochuvchi va uni o'z maqsadiga erishtiruvchi omildir. Ilm va hunarni yoshliqtsan egallah kerak.-Ilm insonga hamma narsani oson va puxta anglab olishga yordam beradi, mexnatni engillashtiradi. Jomiy yoshlarni ilmlarni egallahga da'vat etdi²:

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,

Zarur bo'lmanan axtarib yurma.

Zarurini hosil qilgandan keyin,

Unga amal qilmay umr o'tkurma.³

Jomiy o'z pedagogik qarashlarvda kishilarni ado-lat, xushmuomalalik va dono so'z bilan zulmkorlarga ta'sir etishga da'vat etadi. U yozadi:

Agar chiqsaadolatning quyoshi,

Taralgay har tomon nuri ziyosi,

Agar zulm etsa zolim, bu sitamdan

¹ Najmiddin Kamilov. Tasavvuf 1-2 qism. Toshkent «YOzuvchi» nashriyoti 1996-98 y.

² H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

³ Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. T., «YOsh gvardiya» nashriyoti, 1979.15-bet.

Jahon bo'lgay qaro, yo'q intihosi¹.

YUqoridagi misralarda qilingan nasihat da'vat gar-chi shohyaarga qaratilgan bo'lsa ham, har bir ish va holatda tadbir va aql bilan ish tutish, do'stlarga yaqinroq bo'lish, yomonlik qilishdan saqlanish,adolatli bo'lish har bir insonga qarata qilingan xitobdir.

Jomiy manmanlik, kekkayishlarni qoralaydi, g'ururlikni nodonlikning belgisi deb biladi. Inson hatto, boshqalardan biror sifati bilan yuqori dara-jali bo'lsa ham, kamtar bo'lishi kerak.

Kunlaring o'tarkan terib dur-hikmat, Kunlaring to'liqtsir bo'lsa hur mehnat² deydi shoir.

YAxshiliklar bir xonaga jam,

Qamtarliqpar uning kaliti.

YOmonliklar boshqa xonada,

Uni ochar manmanlik iti.

Ehtiyot bo'l toyib ketmagil.

SHundan kelar yuzing shuviti³. deydi Jomiy.

Jomiy manmanlik nodonlik belgisi ekanligini uqtirib, yoshlarni bu illatlardan xoli, pok bo'lishga undaydi. Jomiy to'g'ri so'zlikni inson uchun zaruriy eng yaxshi xususiyat hisoblaydi, izhor etiladigan fikr so'z va harakat bilan uzviy birlikda bo'lmosg'i kerak. SHoirning ta'kidlashicha, dilkashlik, shirinso'zlik, ochiq chexralik va quvnoqlik kishilarga yaxshi, yoqimli kay-fiyat baxsh etadi:

So'z aytsang rostlikni aytgil odat, Qidirma rostliqdan yaxshiroq ziynat.

Rostliqdan yaxshiroq ziynatni qachon, Qayda ko'rdi ekan biror bnlimdon⁴.

¹ O'sha kitob, 22-bet.

² Hikmatlar guldstasi. T. F. Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1982, 46-bet.

³ A. Jomiy. Bahoriston. T. «Yosh gvdrdiya» nashriyoti. 1979.11-bet
Hikmatlar guldstasi. F. Fulom. 1982, 25-bet.

Ulug' adib o'z asarlarida xasislikni, o'g'rilikni kes-kin qoralaydi, oqilona yashash, ortiqcha boylikni muh-tojlarga berish, qanoatli bo'lish g'oyalaryni olg'a suradi. Jomiy deydi:

Harna kirsa qimmatli mard qo'liga,
Sochar do'stlar oyog'iga barchasin,
O'zi o'lgach, dushmanlari bo'lishar,
Xasis kishi terib yiqqan narsasin¹.

Do'st tanlash, do'stlikning samimiyligi haqidagi fikrlarida Jomiy odamlarning o'zaro munosabatlari-ga e'tibor bergenini ko'ramiz. Ulug' mutafakkir do'stlarning do'stligi haqida:

Dil agar nogahon g'amga uchrasang,
G'amxo'r do'sting bo'lsa, u g'am emasdir.
Kulfat kuni sodiq do'stlaring kerak,
Baxtli kunda do'star hech kam emasdir, —der ekan.

Jomiy ilmlarni egallahsha tajribaga alohida e'tibor beradi, hayotda foydalanilmagan ilmni jonsiz, keraksiz ilm xisoblaydi. U ta'lim oddiga esh avlodni jamiyatga, odamlarga foydali xizmat qiladigan qilib etishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Jomiycha, kitob o'tmish donishmand avlodlar bilan o'z davri yoshlari o'rtasida vosita, insonga eng yaqin do'st, erta tongdagi yog'du, ustoz va murabbiyidir. Jomiyning bu fikri shu jihatdan muhimki, shoир kitobni bilim-ning manbai, ineoniyat donishmandligi xazinasi de-yish bilan birga, donishmandlar o'z asarlarini hayotiy tajriba va kishilar ijodi mevasi sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganliklarini aytadi. SHu sababli ham yoshlarda kitobga muhabbat, uni o'qishga qiziqish tarbiyalanishi kerak.

¹ A. Jomiy, Bahoriston. T., «YOsh gvardiya», 1979, 13-bet

Jomiy kitobni bilim manbai der ekan, muallim-ni qelgusi yosh avlodda bu sifatlarni hosil qiluvchi ustoz sifatida ulug'laydi, ularni hammadan ko'ra ortiq hurmat qiliSHga da'vat qiladi. SHu bilan birga, Jomiy har bir muallim chuqur bilim, aqi, eng yaxshi axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerakligini ham aytadi. Jomiy bunday ideal o'qituvchiga Aleksandr Ma-kedonskiyning tarbiyachisi Arastuni (Aristotelni) misol qilib ko'rsatadi. Demak, aqliy va axloqiy jihatdan komil o'qituvchi har bir o'quvchida aqliy qobiliyatni rivoj toptira oladi.

Jomiyning mehnat xususidagi qarashlari diqqatga sazovordir. U mehnatni insonga baxtli turmush baxsh etuvchi vosita hisoblaydi, har bir inson o'z xalol mehnati bilan yashamog'i lozim, shundagana u baxtli tur-mushga erishadi:

O'z mehnating bo'lzin doim yo'ldoshing,

O'zga minnatidan og'ritma boshing.

CHin do'st ul — do'stligi oshaversa gar,

Do'stidan yomonlik ko'rganida ham,

Boshiga ming jafo toshi yog'ilса,

Mehr uyi u toshdan bo'lur mustahkam¹.

deb do'star vazifasi, sadoqatliligi nimalarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Jomiyning pedagogik qarashlarida insoniy sevgi, muhabbat masalasi ham alohida o'rinni egallaydi. SHoir sevgi-muhabbatsiz insoniyat hayotini tasavvur eta ol-maydi. Uningcha, sevgisiz qalb — yuraksiz tana. Hayot-ning asosi va abadiyligi sevgi tufaylidir. Jomiy-ning' bu fikriga «Layli va Majnun» dostoni yorqin misoldir. Jomiy ushbu dostonda insoniy sevgini yuk-sak ulug'laydi. Doston qahramonlari Qays (Majnun) va Layli sof va samimiyl sevgi sohiblaridir. Ularning muhabbati ko'p to'siqlarga duch keladi. Ammo hech qanday g'ov bu sevgining yo'lini to'sa olmaydi.

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

Ularning o'rta-sidagi eof, samimiy sevgi asrlar osha butun avlodlar-ga muhabbat va vafo namunasi bo'lib, ularni shu ruhtsa tarbiyalamokda. Jomiy deydi:

Muhabbat eng go'zal afsonadir,

Muhabbat eng yoqimli taronadir¹.

O'z ijodiy faoliyatida insonni ulug'lagan, insoniy-likni kuylagan Abdurahmon Jomiyning inson, yosh av-lod tarbiyasi haqida bayon etgan fikr, g'oyalari pedago-gika tarixida muhim ahamiyatga ega. Uning insoniylik, ilmlarni egallash, ilm bilan tajribaning birligi, kitob — bilim manbai, hunar va kasbning ahamiyati, mehnat va mehnatsevarlik, himmatlilik, kamtarlik, do'stlik, to'g'rilik va poklik, sevgi va vafo, shafqat, himmat haqidagi fikrlarni — bu ilg'or g'oyalar eron pedagogik fikr taraqqiyotiga qo'shilgan qimmatli hissadir.

2.3. «Abdurahmon Jomiyning ma'naviy - falsafiy karashlari va fikrlari» mavzusining dars ishlanmasi («Davra suhbati dars turi orqali»).

I. Ma'naviyat asoslari fanidan suxbat metodida bir soatlik dars ishlanmasi.

II. Mavzu: «Abdurahmon Jomiyning manaviy - falsafiy karashlari va fikrlari».

III. Maksad:

1) Ukvuchilarning Abdurahmon Jomiyning xayoti ijodi va falsafiy karashlari bilan tanishtirish.

¹ H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

2) Mutafakkirning koldirgan asarlari, kimmatabxo fikrlari xakida ukuvchilarga tushuncha berish.

III. Darsning turi: «Suxbat»

1\/.Darsning jixizi:

- 1) Tarkatma materiallar (mutafakkirning portreti, asarlakridan parchalar)
- 2) Darslik.
- 3) Islom Abduganievich Karimov asarlari.

U.Darsning borishi:

- 1)Tashkiliy kism.
- 2)Yangi mavzuni e'lon kilish.
- 3)Mustaxkamlash (rasm, tarkatma materiallar, «Charxpak» uyini)
- 4)Ballarni e'lon kilish.
- 5)Kundalik daftarlariiga baxolarni belgilash.

VI. Yangi mavzu

Doskaga Abdurahmon Jomiyning portretini kuydim va tugilgan yili va sanasini yozdim. Ukvuchilar xam daftarlariiga yozib oldilar. Yangi mavzu bilan tanishish bilan darsni boshladim:

«Ulug mutafakkir gumanist Abdurahmon Jomiy XIV asrning yirik namoyondalaridan biri bulib, 1414 yilda Xirot yakinidagi Xarjird kishlogida dunyoga keladi. U yoshligidanok uz tengdoshlari orasida utkir zexni, bilimga chankokligi bilan ajralib turadi. Alloma yoshligidan ilimga adabiyotta, tarix, falsafaga muxabbati erta uygondi. Bolaligida uz tengdoshlari orasida utkir zexni, illiga chankokligi bilan ajralib turardi.

Samarokandga kelganidan sung mutafakkir Kozizoda Rumiy va Xoja Ali Samarkandiyning geometriya, algebra va astronomiya buyicha ma'ruzalarini tinglaydi. Va bu ulug

insonlarni uziga ustoz bilib, ularning izidan borib ular kabi etuk, komil inson bulib etishishga, tarixda iz koldirishga erishadi.

Keyinchalik shoir shayx Sa'diddin Koshgariyga shogird tushib, nakshbandiylik tarikatini undan urgana boshlaydi. Nakshbandiyaning asosiy karashlari uning barcha saxobalari uchun yagonaligicha koladi. Istisno fakat xokimyatga nisbatan bulgan karashdan kelib chikadi. Xoja Axror zamonidan boshlab, nakshbandiya yagona tarikat sifatida nafakat xokimyat bilan xamkorlik kilish mumkin deb xisobladi., balki u bilan alokani majburiyat darajasiga kutaradi, negaki «ular ruxini rom etib», ular siyosatiga ta'sir etishni foydali deb topdi. Ana shuerdan nakshbandiyaning boshkalardan doimo ajratib turadigan siyosiy faollik boshlandi. Anna shundan keyin Abdurahmon Jomiy nakshbandiylik sulukining kuzga kuringan nazariyotchisiga aylandi. Abdurahmon Jomiy 1492 yilda vafot etgan. Jomiy komusiy olim edi. U geometriya, astranomiya, kosmografiya, matematika fanlarini puxta uzlashtirgan. Arab tili, falsafa, ritorika, axlokshunoslik borasida ymrik asarlar yozgan edi. XV asrning yirik mutafakkiri fors-tojik shoiri va olimi Abdurahmon Jomiy xam boshka adabiyot, she'riyat, ijtimoiy axlokiy fikrlar buyuk uzbek shoiri va mutafakkirlari kabi Urta Osiyo madaniyati va faniga ulkan xissa kushgandir. Uning ijodi kup kirrali bulib adabiyotshunoslik, tilshunoslik falsafa, tasavvuf, san'atning turli / soxalari, she'riyat va nansrni uz ichiga kamrab oladi. Allomaning muxim asarlari sirasiga «Baxoriston», «SHarxi ruboyiyot», «Xaft avrang», «Lavoix», «Nafoxat ul-uns» va boshkalar kiradi. SHuningdek, «Lujjat ul-asror», «Risolai muammo», Risolai musiki», va boshka asarlarni yozadi.

Uning asosiy risolalari tuplamiga»Xaft avrang» («Etti taxt») bulib, ular «Tuxfatul axror» («Nuroniyalar tuxfasi»),

«Sabxatul abror» («Takvodorlar tasbexi»), «YUsuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», Xiradnomayi Iskandariy («Iskandar xiradnomasi») «Silsilatuz-zaxob» («Oltin zanjir») va «Salomon va Absol» kabilar shular jumlasidandir.

Jomiy uz asarlarida umuminsoniy mazmun kasb etgan insonparvarlik goyalarini ilgari surdi. U fors-tojik adabiyotini rivojlantirishga ulkan xissa kushdi.

Asarlarining badiyligi, mazmundorligi va xalkchilligi uchun kurash olib bordi. Temuriylar davrida tilshunoslikka xam kattta e'tibor beoila boshladi. Jomiy va Navoiydan tashkari, til muammolari bilan shugullangan yirik olimlar paydo buldi.

SHuning uchun xam Temuriylar madaniyati jaxon madaniyati rivojiga ulkan xissa bulib kushildi. U Ulugbek, Navoiy, Bexzod, jomiy kabi jaxonga tanilgan buyuk siymolarni etkazib berdi.

U uz asarlarida dexkon va xunarmandlar xayotidan olib, jabr-zulm kiluvchilarni koralab yozgan. Boylarni kambagallarni, bechoralarni kullab kuvvatlashga chorlagan.

Jomiy borlikni vaxdati vujud ta'limoti asosila talkin kiladi. Uning tushuntirishicha, Xudo butun mavjudotlarning bosh sababchisi, ijodkordir. U abadiy. Kolgan xama narsa va xodisalar utkinchi va vaktinchadir. Uning e'tikodicha, Xudo yagona bulmaganda edi butun dunyo yuklikka aylanib, balki bu yuklikdan chika olmagan bulur edilar degan edi «Xaft avrang» asarida. Jomiy insonparvarlik ta'limotining markazidla inson turadi. SHoir insonning bilish kobiliyatini cheksiz ekanligini ta'kidlaydi.

E. E. Bertels uz tadkikotlarida fors tojik she'riyatining buyuk klassigi Abdurahmon Jomiy she'riyat va nutk san'atini Sa'diddin Taftazoniy asarlaridan urganganligini kursatib utadi.

Asarlarida shaxs erkinligiadolat, saxovat, mmexnatsevarlik, tugrilik, bilimdonlik xakida fikrlar yuritdi. Uning aytishicha, inson mexnat faoliyatida moddiy dunyo xodisalarini idrok kiladi. Imkoni boricha xama narsa

xakida xakikatni bilishga intiladi va uzining bilib olgan narsalarini amalda kullay oladigan kishi dono deb aytadi.

Darsni mustaxkamlash kismi. YAngi mavzularni kanday uzlashtirganliklarini kuzatish maksadida xar bir katorga aloxida topshiriklar berdim. Topshirikning talabi kuyidagicha edi:

Kataklardagi yashirin joylorga ollomaning muxim osarlarining nomini kuyib, sirli jumbokni echish.

<i>Iqator ukuvchilariga:</i>								
	A							N

2-kator ukuvchilariga:

X							N	
---	--	--	--	--	--	--	---	--

			<i>v</i>			
--	--	--	----------	--	--	--

Jovob: 1. Boxoriston, 2. Xaft ovrong, 3. Lavoix.

SHu vaktning uzida darsda kam kam katnashib utiradigan ukuvchilarga shoirni turt kator she'rlaridan yodlashni topshirdim. Darsda xama ukuvchi katnashib utirganligiga e'tibor berdim. Xar bir katordan bilagon ukuvchilar chikib berilgan katakchalaning tilsimini ochdilar va shular yordamida yana bir bor akllarini charxladilar. Sungra Abdurahmon Jomiyning falsafiy fikirlarini ukib eshittirdim va ularning fikrini xam bildim.

Nomuna:

1-ukuvchi: Abdurahmon Jomiy uz asarlarida jabr-zulm kiluvchilar va zuravonlarni koraydi. Zeroki, ular shaxar va kishloklarni xarobaga aylantiradilar, dexkon va xunarmandalarni talaydilar. Jomiy mexnat axillarini davlatning tayanchi deb bildi. SHuning uchun u boy va amaldorlar, xukmdorlarni dexkonlarni kullab-kuvvatlashga ularning mexnatini kadrlashga da'vat etdi, davlatni asosi adolat ekanligini aloxida ta'kidladi.

2-ukuvchi: Jomiy ilm fan bilan shugullanishni inson uchun kadrli va munosib ish deb bildi. CHunki ill fangina insonni kelajagini belgilaydi. Ilm fanni nafakat uzi balki uzidan keyingi avlodga urgatishga kerakligini aytib utgan.

3-ukuvchi: Abdurahmon Jomiy kishilarni yoshlikdan tarbiya kilishga ularda kabs xunarni egallahsha kizikish uygotishga da'vat etgan. Olim joxillik, nodonlik, magrurlik, uz boyligi bilan maktanishni kattik koraladi.

4-ukuvchi: Abdurahmon Jomiy jamiyatda tinchlik, barkarorlik xukm surishini, insonlar adolatli jamiyatda yashab baxtli baxtli bulishlarini xoxlagan va shu fikrlarini uz asarlarida keltirib utgan. SHuning uchun xam bu allomani falsafiy fikrlarini bugungi kunda davlatni boshkarishda kullanilayotganini kuramiz.

Ukituvchi: Abdurahmon Jomiy xudi SHarkning boshka mutaffakirlari kabi davlatni dono, ma'rifatli va adolatli xukmdor boshkarishi lozim, deb uyladi.

Xukmdorni donoligi adolat va konunlarga amal kilishida namoyon buladi. Jomiy uzboshimchalik, konunsizlik, jabr zulm, zuravonlikdan xoli bulgan davlat tuzumini orzu kildi. U Iskandar xirodnomasini asarida mukammal shaxar davlatni tasvirlaydi. Iskandar uzok yurishlardan sung bir shaxarga etib keladi. U podshoxsiz boshkariladi. Bu shaxar juda

obod bulib, unda xamma tinch, kambagal va boylar yuk, Xamma mexnat bilan mashgul, odamlari xalol va yuksak fazilat egalari.

5-ukuvchi: Xudo yagona bulmaganda edi. Butun dunyo yuklikka aylanib, balki bu yuklikdan chika olmagan bulur edimi degan edi.

6-ukuvchi: Abdurahmon Jomiy insonparvarlik ta'limotining markazida inson turadi. SHoirning insonni bilish kobiliyatining cheksiz ekanligini ta'kidlaydi. Asarlarida shaxs erkinligiadolat, saxovat, mexnatsevarlik, tugrilik, bilimdonlik xakida fikr yuritdi.

7-ukuvchi: Jomiying aytishicha inson mexnat faoliyatida moddiy dunyo xodisalarini idrok kiladi.

8-ukuvchi: Imkoni boricha xamma narsa xakida xakikatni bilishga intiladigan va o'zining bilib olgan narsalarni amalda kullay oladigan kishini dono deb aytadi. SHoir insonni bilish kobiliyatini cheksiz ekanligini ta'kidlaydi.

Fikrlar tugagach ukuvchilarining fikrlash kobiliyatini va suz boyligini ustirish uchun darsni yakunida «CHarxpalak» uyinidan foydalandim. Uyin shunday davom kilishi kerakki, ukuvchilar berilgan mavzudan chikmay allomaning fikrlaridan namunalar keltiradilar. Fikrlar tuxtamasdan davom kilishi kerak.

Fikrlarni ukuvchilar doskaga chikib, ketma-kat yozadilar.

Abdurahmon Jomiy uz asarlarida umuminsoniy mozmun nasb etgon insonparvarlik goyalarini ilgori surdi.

Jamiyat vo davlatni boshnarish baxt soodatga erishish, komil insonni torbiyalosh, mukommal vaadolatli jamiyat barpo kilish kabi mosalalorning uziga xos tolkin kilinishi bilan birga ular urtosido mushtaraklik vo uxshashliklar kup.

Xar konday oliyanoblik vo xoyrli ishlor o'z tabiatiga kuro xudoning moxiyatidan kelib chikodi va u xammo xoliki sifotida xoyr va sharofotning yaratgonligi sababdan insonlarning yomon xulk otvordan tiyilib turishidon chorloydi.

Uning fikricha, xudo tomonidan kuprok insonlargo xayrli ishlor kilish, gayrisha'riy ishlar komrok bulishi ta'kidlanadi.

Bu davrda Urta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy vo mo'naviy xoyotida xukmron mafkura bulmish islom dinining roli kuchaydi.

Sobob-bu shunday narsani, narsoning movshud bulishi unga boglikdir.

Sabob ichki vo tashki kurinishlargo ega. Agar sabobning muayyan belgilori okibatga nuchib utsa, undo ichki sabob namoyon bo'lgan bo'ladi, agorda uning oksi bulsa, unda toshki sabob uzligini kursatgan buladi.

Bu uyin guruxlarga bulib uynaladi. Ukvuvchilarning darsda katnashishlari baxolanadi. «Charxpralak» uyini tugagach, ukuvchilar bilan utgan mavzuni takrorlash uchun test topshirikini echdik. Ushbu test topshiriki ukuvchilarda utilgan mavzuni yaxshi eslab kolish bilan bir katorda, bilim doiralarini kuchaytirishga xizmat kiladi va ijobiy natija beradi.

Darsni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Abdurahmon Jomiyning zamondoshlari tugri kursatilgan javobni belgilang.
 - A) Ulugbek, Navoiy, Bexzod.
 - B) Komil Xorazmiy, Rudakiy, Avaz Utar.
 - V) Taftazoniy, Bexbudiy, Mashrab.
2. Alloma kimga shogirdlikka tushib undan nakshbandiya tarikatini urgangan?
 - A) Alisher Navoiy.
 - B) Sa'diddin Koshgariy.
 - V) Davlatshox Samarkandiy.
3. «Xudo yagona bulmaganda edi, butun dunyo yuklikka aylanib, balki bu yuklikdan chika olmagan bulur edimi» fikrlarini kaysi buyuk asarida keltirgan.
 - A) Baxoriston.

- B) Xaftavrang.
V) Lavoix.
4. Abdurahmon Jomiyning yashab ijod etgan yillarini tugri kursatilgan katorni toping.
- A) 1414-1492 yillar.
B) 1413-1493 yillar.
V) 1415-1494 yillar.
5. Jomiyning asarlari kaysi katorda berilgan.
- A) «Tazkiroti shuar», Mulloyi nav», «YUsuf va Zulayxo», «Layli va majnun».
- B) «Bobur risolasi», «Sullamul ulum», «Axlokiy Jaloliy», «Ishorat».
- V) «Xaft avrang», «Risolai muammo», «YUsuf va Zulayxo», «Salomon va Absol», «Sabxatul abror», Xiradnomaiy Iskandar».
6. Jomiy Samarkandga kelgach kaysi ulug mutafakkirlarning kanday fanlaridan ma'ruzalarini tinglaydi.
- A) Alisher Navoiy va Sa'diddin Koshgariy; tarix, falsafa, nazm va nasr, adabiyot.
- B) Kozizoda Rumiy va Xoja Ali Samarkandiy; geometriya, algebra, astranomiya.
- V) Fitrat, Davlatshox Samarkandiy; astranomiya, tarix, geometriya, falsafa.
7. Abdurahmon Jomiy kanday olim edi.
- A) Komusiy. B)
Falsafiy.
- V) xama javob tugri.
8. Jomiy uz asarlarida nimani ifodalagan.

- A) Boylarni kambagallar ustidan xukmronlik kilishi kerakligini.
- B) Jamiyatda boylar birinchi tabaka oddiy dexkonlar esa past tabaka vakillari xisoblanadi degan fikrni ilgari surgan.
- V) Dexkon va xunarmandlar xayotidan olib₇ jabr-zulm kiluvchilarni koralab yozgan,
9. Abdurahmon Jomiy «mexnat axillarini» nima deb ta’riflaydi?
- A) davlatning tayanchi deb biladi.
 - B) past tabaka.

V) boylarga xizmat kilish uchun xudo yaratgan.

Test topshiriklari bajarilib bulingach, darsda faol katnashib utirgan ukuvchilar baxolanadi. Baxolar kundalik daftalariga kuyiladi.

Uyga vazifa: Abdurahmon Jomiyning ikkita she’rini ukuvchilarga uyga vazifa kilib yodlashga berdim.

Kelajakda men kupgina darslarimni yukorida bayon kilingan usulda utishni niyat kilganligim sababli ukuvchilarning Uzbekiston tarixi va Milliy Istiklol Goyasi darslariga kizikishi ortishi bilan birga ularning mustakil fikrlash va ijodiy izlanish kobiliyatları rivojlanib boradi. Zero, Prezidentimiz Isloll Karmiov aytganlaridek Milliy Istiklol Goyasi fanlarini usib kelayotgan yosh avlodimizga bolaligidanok singdirish chukur samara berishini ta’kidlaganlar. SHuni inobatga olgan xolda kelajakda yosh avlodga munosib tarbiya berishimizga ishonamiz. Bu usulda dars berishni ayniksa, 9-11 sinflarga yaxshi samara beradi.

Xulosa

Abdurahmon Jomiy (**1414—1492**) — fors-tojik shoiri, mutafakkiri va faylasufi. Navoiyning ustozi va do'sti. Jomiy donishmand va madaniyat arbobi edi. Uning ijodi va ijtimoiy faoliyati g'oyat ko'pqirralidir. Jomiy o'z davri adabiyotini yuksak pog'onaga ko'targan ulkan shoir. U «Fotihat ush-sha-bob» («YOshlikning ochilishi»), «Vositat ul-iqd» («O'rtalikdagi dur»), «Xotimat ul-hayot» («Hayot xotimasi») deb nomlangan she'rlarni o'z ichiga olgan uch devonning muallifidir. SHu bilan birga u «Tuhfat ul—axror» («Nuroniyalar tuhfasi»), «Subhat ul-abrор» («Taqvodorlar tasbexi»), «YUsuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Xiradnomai Iskandariy» («Iskandar donishnomasi»), «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjirlar») hamda «Salomon va Absol» dostonlaridan iborat «Haft avrang», «Bahoriston» va boshqa asarlar ijodkoridir. SHoir o'z dostonlarida g'oyat yuksak badiiy mahorat namunasi bo'lган xilma-xil obrazlar silsilasini yaratdi. Uning Layli va Majnun, YUsuf va Zulayho, Salomon va Absoli, Iskandar va Flotuni jahon adabiyoti xazinasidan o'rин olgan nodir obrazlardandir. Jomiy insonni ulug'ladi, Vatan haqida qayg'urdi. Odamlardagi zararli xulqparvarni qoraladi, fitna va fujurni, xudbinlik va ayyorlikni, munofiqlik va aldamchilikni, tekinxo'rlik va talonchilikni keskin tanqid ostiga oldi. SHoir bunday illat-larga o'ralashib qolgan odamlarga halol, vijdonli, insofli,adolatli odamlarni, chin insoniy fazilatlarni qarama-qarshi qilib qo'ydi. SHoir o'zi-ning hajviyalarida voizlar, zoxiddar, shayxlarning, amaldor gumashtalarning yaramas xulq-atvorlarini ayovsiz tanqid qildi. Ularning butun faoliyatları zaminida firibgarlik va g'alamislik, qabohat va razolat, munofiqpik va shuxrataarastlik kabi jirkanch illatlar yoritishini fosh etdi. Jomiy bilan Navoiy o'rtasidagi do'stlik, umuman, buyuk shaxslar o'rtasida bo'lган eng ibratli va eng samimiyy do'stlik namunasidir. Bu do'stlik ikki xalq o'rtasidagi asrlar mobaynida mavjud bo'lган ahillik va hamkorlikning ajoyib timsoli edi. Bu do'stlik hamisha mamlakat taqdirini hal qiladigan ulkan masalalarda ham, badiiy ijod masalalarida ham namoyon bo'ldi va o'zining yaxshi samaralarini berdi. Jomiy va Navoiy birgalikda

mamlakatda keng qanot yoygan zulm vaadolatsizlikni, hokimlarning o'zboshimchaligi va razilliklarini qoralaverdi, yurtni obod, xalq turmushini yaxshilash haqida o'ylashdi. Jomiy oliyjanob va ilg'or fikrlarni ifoda etuvchi shunday yuksak so'z san'ati namunalarini yaratdiki, ular dunyo madaniyati xazinasini boyitdi va jahonning deyarli barcha madaniy mamlakatlariga yoyiddi: yarim ming yil mobaynida O'rta Osiyo, Af-g'oniston, Hindiston, arab mamlakatlari, Eron, Kavkaz va Idil bo'ylarida adabiyotning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib keldi. SHoirning nomi va asarlaridan namunalar, Evropaga ham etib bordi. Masalan, ulug' mutafakkir yozuvchi Gyote Jomiyni o'zidan yuqori qo'yishi va uni «fors klassik poeziyaning porloq yudduzi», — deb madh etishi tasodifiy emas, albatta. Jomiy barcha xalqlarga, shu jumladan, o'zbek xalqiga, ularning madaniyatiga chuqur hurmat bilan qaradi. Jomiy qoldirgan obidalar — ajoyib asarlarni o'zbek xalqi juda yaxshi biladi va sevadi. Uning o'zbek adabiyoti tarixida o'z o'rni bor. O'zbek klassik adabiyotining ko'zga ko'ringan deyarli barcha namoyandalari Jomiyni katta hurmat bilan galga oladilar.

Olib borilgan ishimiz natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Abdurahmon Jomiy ta'limotidagi insonning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari muammosini ilmiy tahlil etib, shu xulosaga keldikki, bu mutafakkir tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, takliflarni, ilgari surilgan qarashlarni hisobga olib, hozirda, yosh avlodni axloqiy tarbiyasi darajasini oshirishga, mustaqil O'zbekistonning kelajakdagি barkamol quruvchilarini shakllantirish ishida quyidagi asosiy fazilat va ko'nikmalarni hosil qilish hamda ularni odat tusiga aylantirish lozim:

-vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, elga hurmat va sadoqat, xalq qayg'usi va quvonchiga hamdardlik, mehnatsevarlik, chin qo'shnichilik munosabatlari, mehmono'stlik;

-oilaga sadoqat, pok muhabbatni e'zozlash, diyonatli va vijdonli bo'lism, o'z nomusi va orini saklash, ichkilik va giyohvandlik kabi nomaqbul odatlardan saklanish;

-ajdodlarga hurmat-ehtirom, ularning merosini ardoqlash, asrab avaylash, o'qib-o'rganish, o'git, pand-nasihatlariga amal qilish, ishlarini davom ettirish;

-ota-onaga va ustozga katta hurmat, kattalarga, qariyalarga izzat, kichiklarga mehribonlik, etim-esirlarga, nogaron va muhtojlarga muruvvat, mehr va shafqat, ularga nisbatan g'amxo'rlik;

-tabiat va jamiyat boyliklariga ongli munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash, tejab-tergash, jonli mavjudotlarga g'amxo'rlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijodkorlik;

-adolatlilik, rostgo'ylik, haqiqatga intilish, o'z kasbini sevish, o'zgalar mehnatini hurmat qilish, kamtarlik, mardlik;

-go'zallikni tushuna bilish va uni seva olish, poklik, did va farosat bilan kiyinish, ortiqcha zeb-ziynatga berilmaslik, til bilan dil birligi, shirinzabonlik va shirinsuxanlik.

Bitiruv malakaviy ishda ko'rib chiqilgan Abdurahmon Jomiy ta'limotidagi insonning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari mavzu va yakuniy xulosalar hozirda ham yoshlarning tarbiyasi uchun katta ahamiyat kasb etishini yaqqol ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2011. 4-13-betlar.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2005. – 48 b.
3. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, Yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
6. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-betlar.
7. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-betlar.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-betlar.
9. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. -T.: «O'zbekiston» 2001. 70-98-betlar.
10. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-betlar.
11. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 243-275-betlar.

12. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 285-312-betlar.
13. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lzin. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. 313-337-betlar.
14. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003. - 320-bet.
15. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamji-hatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
16. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005. - 96 b.
17. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T. 13. –T.: «O'zbekiston», 2005. - 448 b.
18. O'zbekiston Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» Fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi. «Ma'rifat», 2001 yil 20 yanvar.
19. O'zbekiston Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. «Xalq so'zi», 2006 yil 26 avgust.
20. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.-117b.
21. Rukopisi proizvedeniy Abduraxman Djami v Sobranii Instituta vostokovedeniya AN UzSSR, Izd. "Fan", T., 1965.
22. Alisher Navoiy, Arbain hadis. Qirq hadsi. T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1991.
23. A'loxon Afsaxzod. Lirika Abd ar-Raxmana Djami, M:, 1998, str. 184
Alisher Navoiy. Hamsa. T., 1960.
24. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. T., 1939.
25. Abdurahmon Jomiy. Baxoriston. T., «YOsh gvardiya» nashriyoti, 1979. 15-bet.

26. Oybek. Navoiy asari. T., 1958.
27. Rahmanov M. A . Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at T., 1996.
28. Alisher Navoiy «Nasoyimul-muhabbat», Toshkent .1982 y.
29. E. E Bertels . Sufizm i sufiyskaya literatura. M. «Nauka » nashriyoti, 1995 y.
30. Najmiddin Kamilov. Tasavvuf 1-2 qism. Toshkent «YOzuvchi» nashriyoti 1996-98 y.
31. «Muxammad Moziy Abul Azoim haqidagi ilmiy risolalar» Dourul Kitobus Sufiy. Qohira.1996 y.
32. Abul Hasan Ali al- Hasaniy an- Nadaviy. «Rijolul Fikri vad Da'vati fil Islomi». Doru Ibn Kasir. Bayrut. 1999 y.
- 33 .Yo'ldoshev J., Hasanov S. «Avesto»da axloqiy- ta'limi qarashlar// Halq ta'limi. Toshkent, 6-7 sonlar, 1992.
34. Mallaev N. M. Navoiy ijodiyoti. Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994.
35. Nuriddinov M. YUsuf Qorabog'iy va O'rta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy falsafiy fikr. Toshkent, Fan, 1991.
- 36.Buyuk siymolar, allomalar. T.,2012,1-kitob., 28-bet.
- 37.Vamberi H. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi.T.,1990., 15-bet.
- 38.Djaxid A.M. Abu Nasr al-Farabi o gosudarstve. Dushanbe,1966.,s.61
- 39.Dinshunoslik asoslari.(A.A.Abdusamedov tahririda) T., 2007,15-6
- 40.Jumaboev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari.T.,2007., 38-6.
- 41.Qur'on.(Qarang: I. YU. Krachkovskiy tarjimasi) M. IVL.-1963, (birinchi raqam surani. Ikkinchisi, oyatni bildiriadi).
- 42 M.Xayrullaev. Uyg'onish davri va SHarq mutafakkiri. T."O'zbekiston", 1971,-95-bet.
44. Ma lla e v N. M. XV asr tazkiralalarining tarixiy-adabiy ahamiyati. «Uzbek adabiyoti tarixi masalalari». Adabiy-tankidiy maqolalar to'plami. UzDBAN, Toshkent, 1999, 256—268-b.
- 45 . H u s e y n z o d a SH. SHe'r va shoiri az nazari. Leninobod, 1986, 123b.

46. Boltayev M. N. Abduraxman Djami o cheloveke egosmyisle jizni i naznachenii. Kagan, 2011, 70 str.
47. Navro'zova G. Abdurahmon. Jomiy va Naqshbandiya ta'limoti «Ma'rifat» — Buxoro 1995, 76-bet.